



O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON O‘RTASIDAGI HAMKORLIK TARIXIDA MUHIM BOSQICH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘lib turibdi.



Bu tashrif ikki qardosh xalq o‘rtasidagi munosabatlarda tarixida navbatdagi muhim bosqichga aylanadi. Tashrifning birinchi kuni Prezident Ilhom Aliyev bilan bo‘lib o‘tgan muzokaralar, Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi va imzolangan kelishuvlar nafaqat ikki tomonlama aloqalarni, balki mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning yo‘nalishini belgilashda ham muhim sanaladi.

Davlatimiz rahbari 3-iyul kuni Boku shahrida Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev mangu qo‘nim topgan Faxr xiyoboniga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz Haydar Aliyev qabriga gul qo‘yib, Ozarbayjonning buyuk davlat va siyosat arbobi xotirasiga ehtirom ko‘rsatdi.

Haydar Aliyev haqli ravishda mustaqil Ozarbayjonning

asoschisi hisoblanadi. Uning rahbarligida mamlakatning jadal rivojlanishi va xalqaro maydondagi nufuzi yuksalishi uchun mustahkam poydevor yaratildi.

Uning davlat qurilishi va milliy suverenitetni mustahkamlashga qo‘shgan hissasi Ozarbayjon tarixida alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda Haydar Aliyevni qardosh davlatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlashga katta ahamiyat bergan davlat arbobi sifatida chuqur hurmat qilishadi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Boku shahridagi G‘alaba bog‘iga bordi.

O‘zbekiston yetakchisi G‘alaba kuniga bag‘ishlangan yodgorlik poyiga gul qo‘yib, Ozarbayjon vatanparvarlari xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Ozarbayjon poytaxti markazida joylashgan ushbu

zamonaviy yodgorlik majmuasi mamlakat ozodligi va hududiy yaxlitligi yo‘lida qurbon bo‘lgan milliy qahramonlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonga davlat tashrifi doirasida Fuzuliy shahriga keldi.

Aeroportda oliy martabali mehmonni Ozarbayjon madaniyat vaziri Odil Kerimli va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Shahar buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Muhammad Fuzuliy nomi bilan atalgan. Mamlakatning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bu shahar azaldan Qorabog‘ning “janubiy darvozasi” hisoblanadi.

2020-yildan boshlab Fuzuliy tumani va shahrida keng ko‘lamli qayta tiklash dasturi amalga oshirilmogda.

2021-yilda foydalanishga topshirilgan Fuzuliy aeroporti barpo etilgan muhim obyektlardan biri bo‘ldi. Shaharda, shuningdek, zamonaviy turar joy majmualari, tibbiyot va ta‘lim muassasalari, infratuzilma obyektlari qad rostladi, yangilari qurilmogda.

2023-yil avgust oyida ikki mamlakat yetakchilari shaharda O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan birodar xalqlarimiz o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik ramzi sifatida qurilgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi zamonaviy maktabni ochgan edilar.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xonkendi shahriga keldi.

Davlatimiz rahbarini Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev kutib oldi.

Bu yerda yetakchilar qo‘shma tikuvchilik fabrikasi faoliyati bilan tanishdi.

Korxona Prezidentlar tomonidan 2024-yil noyabr oyida Bokuda bo‘lib o‘tgan BMT Iqlim sammiti doirasidagi uchrashuvda ishga tushirilgan edi.

Tikuvchilik fabrikasining maydoni 1,2 gektar. Loyihaning umumiy investitsiya qiymati 6,2 million dollarni tashkil etadi. Jami 800 ta ish o‘rni yaratiladi.

Korxonada yiliga 3-5 million dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Tayyor mahsulotlar ham ichki bozorga, ham eksportga yetkazib beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xonkendi shahridagi Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida Afg‘oniston Bosh vazirining iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi Mulla Abdul G‘ani Barodarni qabul qildi.

Savdo-iqtisodiyot, transport-logistika, energetika sohalaridagi o‘zaro manfaatlilik hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb jihatlarini muhokama qilindi.

Tovar ayirboshlash hajmi va qo‘shma korxonalar soni barqaror ortib borayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Amaliy aloqalar faollashdi. Joriy yilning may oyida Kobul va Mozori Sharif shaharlarida O‘zbekiston savdo uylari ochildi. Iyun oyida Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim imzolandi.

O‘zbekiston yetakchisi chegaraladi savdo va tegishli infratuzilmani yanada rivojlantirish, qazib chiqarish, to‘qimachilik, farmatsevtika hamda qurilish materiallari tarmoqlarida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish muhimligini ta’kidladi.

Strategik muhim mintaqaviy loyiha — Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini jadallashtirish zarurligi qayd etildi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev hamrohligida Ag‘dam shahridagi “Imorat” tarixiy-me‘moriy majmuasiga tashrif buyurdi.

Bu yerda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari ham keldi.

Ag‘dam shahri Ozarbayjonning g‘arbiy qismida, Qorabog‘ tumanida joylashgan. 2021-yildan boshlab shahar infratuzilmasi faol tiklanmogda: yangi maktablar, bolalar bog‘chalar, uy-joylar, ma‘muriy binolar qurilmogda.

“Imorat” majmuasida Qorabog‘ xonligi asoschisi Panoh Alixonning saroyi va maqbarasi joylashgan. 2024-yilda majmua restavratsiya ishlari va arxeologik tadqiqotlardan so‘ng qayta ochildi.

Bu yerda Qorabog‘ tulporlari parki va interaktiv muzey tashkil etilgan.

Yetakchilar majmuada yaratilgan sharoitlar, bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Mehmonlar e‘tiboriga Ozarbayjon Qorabog‘ining buyuk madaniyati va an‘analarini aks ettiruvchi Qorabog‘ tulporlari ishtirokidagi “Zafar” nomli madaniy dastur taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi davom etmogda.

O‘ZA

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING O‘ZARO MANFAATLI FORMATI

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi va uning doirasida o‘tkazilgan tadbirlarning dastlabki natijalarini yuksak baholamogda

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ikki tomonlama munosabatlarda rivojida muhim bosqich bo‘lgan Ozarbayjonga davlat tashrifi davom etmogda. Xususan, 2-iyul kuni bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar yakunlari bo‘yicha muhim hujjatlar imzolangani, ekspertlarning fikricha, keng qamrovli sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun katta istiqbollardan dalolat beradi.



O‘zbekiston va Ozarbayjon Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi tashrif dasturidagi muhim voqea bo‘ldi. Tahlilchilarga ko‘ra, ushbu format ikki tomonlama munosabatlarda tarixidagi muhim

bosqich bo‘lib, oliy darajadagi siyosiy ishonchni aks ettirdi va uchrashuv yakunlari tomonlarning sohalarida faol hamkorlikka intilishini tasdiqladi.

Davomi 2-betda

BOQIY HAYOT FORMULASI

SUV TEJAMKORLIGIGA FAQAT TEXNOLOGIYA BILAN ERISHIB BO‘LMAYDI

Afrika hayotini aks ettiradigan bir filmida ko‘rgan edim. Erkak uzoq va mashaqqatli mehnat bilan qattiq bir mevaga chopqi yordamida ishlov beradi. Uzoq urinishlardan keyin yakunda undan bir piyolacha suvni siqib oladi. Bu o‘sha erkak va oilasining chanqog‘ini qondiradigan yagona manba edi.

Film qurg‘ochilikning og‘ir oqibatlarini suvga mushoq insonlar ko‘zlarida, bolalarning qurib qolgan lablarida namoyon etgandi. Men esa tashnalikni tanasida, ruhiyatida his etayotgan o‘sha bolalar nigohlaridan ko‘chgan og‘riqni jo‘mrakni bir burash badalida unutib yuborgan edim.

Davomi 4-betda

YANGI O‘ZBEKISTONNI BARCHAMIZ BIRGALIKDA ALBATTA BARPO ETAMIZ!



30-iyun – Yoshlar kuni mamlakatimizda keng nishonlandi. Davlatimiz rahbari ushbu kunga bag‘ishlangan tantanali marosimdagida nutqida “Ishonchim komil, biz butun xalqimiz bilan, siz, aziz farzandlarim bilan ulug‘ maqsadlarimizga albatta yetamiz! Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda albatta barpo etamiz!” deb alohida ta’kidladi. Ushbu maqolada aynan shu masala, ya’ni yangi O‘zbekistonni yaratish allaqachon umumxalq harakatiga aylanib ulgurani haqida fikrlashamiz.

Jamiyatni boshqarishning umumiy usullari

Davlatni adolati, oqilona va xalq manfaatlariga mos boshqarishning asrlar davomida shakllangan va jahon davlatlari uchun etalon sifatida qabul qilingan umumiy jihatlar mavjud. Xalq manfaatlarini maksimal darajada ifoda qiladigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plamini yaratish va ular yordamida davlatni boshqarish ana shu umumiy qonuniyatlarining eng muhim jihatidir.

Mazkur hujjatlar ro‘yxatiga Konstitutsiya, qonunlar, parlament qarorlari, Prezident farmon, qaror va farmoyishlari, hukumat qarorlari, vazirlarlik, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

Jamiyatni boshqarishda me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan tashqari strategiya, konsepsiya, dastur, chora-tadbir kabi hujjatlarning ham ahamiyati juda katta. Ular qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-me‘naviy jarayonlarni boshqarishning aniq va manzilli yo‘llarini belgilab beradi.

Davomi 3-betda

“YASHIL” ENERGETIKA

BUGUNGI TRENDMI yoki STRATEGIK ZARURAT?

4





“RAQAMLI HUKUMAT”NING KEYINGI BOSQICHI

TA’LIM, TIBBIYOT, QURILISH VA
KOMMUNAL SOHALARDAN BOSHLANADIYOSHLAR BEVOSITA
DAVLAT RAHBARIGA O‘Z
FIKRLARINI BAYON QILISH
IMKONIGA EGA BO‘LDI

Prezidentimizning yoshlar bilan

uchrashuvini nafaqat tantanali marosim, balki kelajakni shakllantirishga qaratilgan yangi siyosiy strategik bosqichga zamin yaratdi deb bemaol aytish mumkin. Chunki muloqotda davlatimiz rahbari yoshlar yutuqlaridan faxrlanishini aytish barobarida kelajakka daxldor innovatsiya, IT texnologiya, “yashil iqtisodiyot” va kreativ sanoatda yoshlar g‘oyalari katta e’tibor qaratish zarurligini ta’kidladi.

Shuni katta g‘urur bilan aytishim kerakki, bu kun boshqa tengdoshlarim kabi men uchun ham unutilmas tarixiy kun bo‘ldi. Davlat rahbari bilan bevosita muloqot qilish nafaqat faxr, balki katta mas’uliyat hamdir. Bu uchrashuv, shak-shubhasiz, yurtimizda yoshlarga bo‘lgan e’tibor va ishonchning yana bir yorqin ifodasi edi.

Uchrashuv davomida Prezidentimizning har bir so‘zi, har bir murojaati bevosita biz, yoshlar qalbiga yetib bordi. Zero, yangi O‘zbekiston bunyodkorlari aynan navqiron avlod vakillaridir. Yoshlar — kelajak egasi, bugunning hal qiluvchi kuchi. Bu so‘zlar nafaqat ruhlantirdi, balki harakatga chorlovchi hayotiy chaqiriq bo‘ldi.

Prezidentimiz muloqotda yoshlar va mamlakatimiz kelajagiga daxldor ko‘plab tashabbus va g‘oyalarni ilgari surdi, o‘z navbatida, yoshlarning taklif va fikrlari bilan ham qiziqdi. Takliflar, fikrlar turlicha bo‘ldi. Lekin meni quvontirgani bugungi yoshlar o‘z fikr va takliflarini bevosita davlat rahbariga aytish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu chinakam demokratiya va ochiq muloqotga asoslangan davlat boshqaruvining namunasidir. Ayniqsa, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, ularni qonun ijodkorligi jarayonlariga keng jalb etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgani diqqatga sazovor.

Davlatimiz rahbarining har bir chaqirig‘i katta mas’uliyat yuklaydi. Ishonamanki, bu tarixiy uchrashuv yoshlar qalbidagi juda katta kuch uyg‘otdi. Binobarin, uchrashuvda yoshlar bejiz Uchinchi Renessans bunyodkorlari, deya qayta-qayta ta’kidlanmadi. Demak, davlat biz, yoshlarga ishonmoqda. Endi o‘z ilimimiz, tashabbusimiz va qat’iyatimiz bilan ushbu ishonchni oqlashimiz shart.

Muhammad Ali RO‘ZIBOYEV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi
Yoshlar parlamenti faoli



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi zamonaviy davlatchilik rivojida muhim o‘rin tutadi. U iqtisodiyot, jamiyat va boshqaruvning barcha yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ma’lumot almashish jarayonini tezlashtirish va iqtisodiy o‘shish uchun yangi imkoniyatlarni yaratish maqsadlariga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatli.

Sohaning yuqori sur’atdagi taraqqiyoti, mamlakatimizning global dunyoga tizimli ravishda transformatsiyalashuvi, birinchi navbatda, yoshlarimizning ijtimoiylashuvi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirish, intellektual bilimni namoyon qilish, tahliiliy fikrlashi, iqtidori va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur sharoitlar yaratish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

Shu bois, ushbu sohani jadal rivojlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalari bo‘yicha muloqot va ishlab chiqarayotgan strategiyalar davlatimiz rahbarining doimiy nazoratida bo‘lgani uchun ham yo‘nalishdagi natijalar jadallik bilan o‘shib bormoqda.

Bugun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Elektron hukumat tizimlari va raqamli xizmatlar davlat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yaxshilash, qog‘ozbozlikni kamaytirish va boshqaruv jarayonini shaffoflashtirish imkonini beradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari ijtimoiy soha rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Onlayn

ta’lim, teletibbiyot va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid raqamli platformalar asosiy xizmatlarni aholiga, jumladan, olish hududlardagi fuqarolarga ham yetkazishni osonlashtiryapti.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy IT xabga aylantirish uchun qator vazifalar belgilangan. Xususan, IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Buning uchun hududlarda IT infratuzilmasi va venchur bozorni rivojlantirish, “local to global” tamoyili orqali mahalliy korxonalarni eksportga olib chiqish, yurtimizda xalqaro kompaniyalar ofislarini ochish kabi ko‘plab choralar ko‘zda tutilgan.

Ayni paytda ta’lim, bank ishi, bojxona, moliya, qishloq xo‘jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarda raqamli transformatsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda. Yangi IT kompaniyalar tashkil etilmoqda. Sohaga chet el sarmoyalari tobora ko‘proq jalb etilyapti.

O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida telekommunikatsiya bozorida eng yuqori o‘shish sur’atini namoyon etmoqda. Xususan, Nexign kompaniyasi va TelecomDaily axborot-tahilliy agentligi tadqiqotiga ko‘ra, keyingi uch yilda O‘zbekiston telekommunikatsiya bozori 12,7 foiz o‘shishi kutilmoqda. Mintaqaning boshqa davlatlarida bu ko‘rsatkich 4-6 foiz atrofida bo‘ladi. Bozor o‘shishining asosiy drayverlari sifatida tarmoq infratuzilmasini modernizatsiyalash, 5G texnologiyalarini rivojlantirish, yangi avlod raqamli xizmatlarini ishga tushirish kabi omillar qayd etilgan.

Tadqiqotga ko‘ra, O‘zbekiston telekommunikatsiya bozori hajmi 2020-yildagi 10,2 trillion so‘mdan 2024-yilda 20,9 trillion so‘mgacha, ya’ni ikki barobar oshgan. Birgina o‘tgan yili telekommunikatsiya bozori hajmi

2023-yildagidan 18,6 foiz o‘sd. Bu ko‘rsatkich Qozog‘istonda 11, Qirg‘izistonda 13,6, Rossiya 7,8 foizni tashkil etdi.

Nexign kompaniyasi va TelecomDaily agentligi tahlillariga ko‘ra, joriy yilda O‘zbekiston telekommunikatsiya bozori hajmi 24,1 trillion so‘mdan oshib, 15,3 foiz o‘shishi kutilmoqda. Nexign tijorat kompaniyasi direktorining e’tirofi etishicha, “O‘zbekiston telekommunikatsiya bozori jadal rivojlanmoqda va raqamli rivojlanishning katta maqsadlarini qo‘llab-quvvatlayapti. Yuqori raqobat operatorlarni innovatsion yechimlar joriy etishga undaydi”.

Mamlakatimizda “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida katta yutuqlarga erishilmoqda. Masalan, onlayn o‘quv platformalari foydalanuvchilarining faolligi asosida dunyoda professional hamda raqamli ko‘nikmalar darajasini baholab boradigan va har yili chop etiladigan Global skills reytingida (2024-yil) mamlakatimiz kadrlar tayyorlashga eng ko‘p investitsiya kiritadigan davlat sifatida birinchi o‘rinni egalladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Coursera platformasidan foydalanuvchilar soni bo‘yicha MDH davlatlari orasida yetakchi o‘rinni egalladi. Coursera dunyodagi yetakchi universitet va kompaniyalarning onlayn kurslari va ta’lim dasturlarini taqdim etuvchi platformadir.

Yana bir yutuq: mamlakatimiz onlayn ta’limga aholini keng jalb qilayotgan eng faol 6 davlat orasida birinchi o‘rinni egallab, Singapur, BAA, Kanada, Gonkong va AQSH kabi mamlakatlardan ilgilarib ketdi.

Hozirgi tez o‘zgarayotgan zamonda barcha sohalarga axborot texnologiyalarini biladigan kadrlar suv va havodək zarur. Bu sohadagi xizmatlar ham, eksport ham aynan malakali mutaxassislar bog‘liq. Shu bois, IT mutaxassislar tayyorlash uchun zarur infratuzilma bosqichma-bosqich kengaytirilib, takomillashtirilyapti.

Eng asosiysi, yuqorida qayd etganimizdek, strategik ahamiyatga ega soha rivoji doimiy e’tiborda. Jumladan, joriy yil 7-fevral kun Prezidentimiz raisligida hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu borada aniq maqsadli vazifalar belgilab berilgan edi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari IT xizmatlar hajmini 30 foiz ko‘paytirish, ushbu yo‘nalishdagi eksportni bir milliard dollardan oshirish, hududlar va tarmoqlarda raqamli xizmatlarni keng joriy etish bo‘yicha aniq tashabbus va mexanizmlarni taklif qilgan edi. Shuningdek, kreativ iqtisodiyotdagi startap loyihalar uchun joriy yilda 50 million dollar ajratilgani qayd etilgandi.

Joriy yil 1-iyul kuni davlatimiz rahbari raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va telekommunikatsiya sohasidagi rejalar taqdimoti bilan tanishar ekan, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivoji uchun yaratilgan keng imkoniyatlar katta natijalar olib kelganini ta’kidladi. Xususan, o‘tgan davrda IT park rezidentlari 2800 dan oshdi, xorijiy kompaniyalar soni esa 752 taga yetdi. Bu sohada 40 ming yosh yuqori daromad topyapti.

— Bugungi kunda 760 ta davlat xizmati raqamlashtirilib, o‘tgan yili ulardan 10 million fuqaro foydalangan, — deydi raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov. — Davlatimiz rahbari endi keyingi “Raqamli hukumat” bosqichiga o‘tish vaqti kelganini ta’kidladi. Buni, avvalo, aholi eng ko‘p murojaat qiladigan ta’lim, tibbiyot, qurilish va kommunal sohalardan boshlash kerakligi aytildi. Buning uchun 2025-2026-yillarda davlat organlari va xo‘jalik birlashmalarida 68 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Yana bir jihat. Sohada xizmatlar hajmi va eksportini oshirish muhim vazifalardan. O‘zbekistondagi sharoit va imtiyozlar natijasida boshqa relokantlar ham yurtimizga kelishdan manfaat ko‘ryapti. Xususan, 2017-yilda xorijiy sarmoyaga ega kompaniyalar soni 10 taga ham yetmagan bo‘lsa, bugungi kunda bir oyda 30 ta xorijiy kompaniya faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa har bir hududda jozibador muhit yaratilib, chet el kompaniyalarini jalb etish borasidagi sa’y-harakatlarning amaliy natijasidir.

Shuningdek, sohada yangi-yangi bozorlar ochilmoqda. Masalan, bundan uch yil oldin Yaponiyaning hech qanday kompaniyasi yo‘q edi. Bugun esa ushbu davlat kapitali ishtirokidagi 17 ta kompaniya faoliyat ko‘rsatmoqda. Tez o‘sayotgan kompaniyalar soni Janubiy Koreya, Germaniya va arab davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING
O‘ZARO MANFAATLI FORMATIXorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi va uning
doirasida o‘tkazilgan tadbirlarning dastlabki natijalarini yuksak baholamoqda

Boshlanishi 1-betda

Boku shahrida “O‘zbekiston” bog‘iga tamal toshi qo‘yilishi, O‘zbekiston elchixonasi yangi binosining rasmiy ochilishi ham katta ramziy ma’noga ega. Bu diplomatik munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi hamda rasmiy Toshkent va Boku o‘rtasidagi muloqotni chuqurlashtirdi.

O‘zbekiston Prezidenti Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev xotirasiga hurmat bajo keltirdi, Ozarbayjon qahramonlarini xotirladi. Bunday samimiy e’tibor belgilari o‘zbek va ozarbayjon xalqlarining tarixiy hamda ma’naviy yaqinligini ta’kidlabgina qolmay, ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi do‘stlik va

ishonchning yuksak darajasini ham namoyon etdi.

Xalqaro ekspertlar, shuningdek, tashrifning dastlabki natijalari o‘z mintaqalaridagi asosiy davlatlar bo‘lgan O‘zbekiston va Ozarbayjon nafaqat Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz, balki butun Yevroosiyoing barqaror rivojlanishiga yo‘naltirilgan samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlikning muvaffaqiyatli modelini namoyish qilayotganini ta’kidlamoqda. Davlatlararo hamkorlikning ushbu formati global muammolar fonda qit’ada barqarorlik, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik va yaxshi qo‘shimchilikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.



Antonio ALONSO,
San-Pablo universiteti Ijtimoiy
tadqiqotlar instituti professori,
Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha
ekspert (Ispaniya):

— O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi bugungi kunda yuksalib borayotgan o‘zbek-ozarbayjon munosabatlari rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Oliy darajadagi muzokaralar va 2-iyul kuni o‘tkazilgan Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi strategik sheriklikning yangi yo‘nalishlarini belgilash va boshqa asosiy jabhalarda amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Muzokaralar yakunlari bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikka yangi sur’at baxsh etadigan mustahkam ikki tomonlama hujjatlar to‘plami imzolanganini ayniqsa muhim.

Tashrifning boy gumanitar qismini alohida aytib o‘tish joiz. Davlatimiz rahbarining Boku shahridagi “O‘zbekiston” bog‘iga tamal toshi qo‘yishi va O‘zbekistonning Bokudagi elchixonasi yangi binosining ochilish marosimidagi ishtiroki ikki xalq o‘rtasidagi qardoshlik rishtalarining ramziy ma’nosini bildiradi. Shusha, Ag‘dam va Xonkendidagi madaniy dasturlar esa ishonch, o‘zaro yordam, tinch hamda bunyodkor kelajakka intilish ortib borayotganining yorqin namunasidir.



Aydin ASKEROV,
Latviya Markaziy Osiyo va
Yaqin Sharq siyosiy tadqiqotlari
instituti prezidenti:

— Tashrif tarixan yaqin bo‘lgan ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Mintaqaviy miqyosda sanoat, xalqaro avtomobil aloqasi, turizm, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, karantin va o‘simliklarni himoya qilish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik sohalarida o‘zaro sheriklikni faollashtirishni rag‘batlantiruvchi

juda ta’sirli kelishuvlar to‘plamining imzolaniishi orqali keng qamrovli aloqalarni yanada chuqurlashtirish jarayoni shundan dalolat beradi.

O‘zbek va ozarbayjon xalqlarining tili, diniy, madaniy qadriyatlari va sivilizatsiyaviy hamjamiyat, iqtisodiyotlarning bir-birini to‘ldiruvchi tabiati hamda ikki mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonchning yuksak darajasi davlatlararo muloqot uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Global yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, jumladan, yangi geosiyosiy voqealar fonda O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlarining mintaqalararo sheriklikni chuqurlashtirish bo‘yicha olib borgan mazmunli muzokaralari o‘z vaqtida va o‘zaro manfaatli bo‘ldi.

Toshkent va Boku Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz hamda Yevropa va Osiyo qit’alari davlatlarini o‘zaro bog‘lovchi ko‘priklar bo‘lishi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi istiqbolida ikki do‘st va qardosh mamlakat o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik hamda hamkorlik munosabatlari yanada jadal rivojlantirishga xizmat qiladi.



Shaxriyor XON,
Milliy muloqot forumi tahlil
markazi ijrochi direktori
(Pokiston):

— O‘zbekiston Prezidentining Ozarbayjonga davlat tashrifi va uning iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitidagi ishtirokini ikki tomonlama O‘zbekiston — Ozarbayjon kun tartibi uchun ham, butun IHT makoni uchun ham juda muhim voqea deb bilaman.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘tgan bir necha yil ichida izchil va tizimli strategik sheriklikning noyob namunasini namoyish etdi. Ikki davlat

Syuy TAO,
Xitoy Davlat kengashi huzuridagi
Ijtimoiy rivojlanish tadqiqotlari
markazi Yevroosiyo ijtimoiy
taraqqiyot instituti direktori
o‘rinbosari:

— O‘zbekiston va Ozarbayjon Oliy davlatlararo kengashining ikkinchi yig‘ilishi yakunlari mamlakatlar o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari ta’sirchan dinamikasini namoyon etmoqda. Keng ko‘lamli hujjatlar to‘plamining imzolaniishi Toshkent va Boku ittifoqchilik munosabatlari doirasidagi deklaratsiyalardan aniq harakatlarga o‘tayotganini tasdiqlaydi, bu esa Yevroosiyo integratsiyasi ruhi va Shanxay hamkorlik tashkiloti tamoyillariga to‘liq mos keladi.

2025-2029-yillarga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi” alohida e’tiborga loyiq. Chunki unda uzoq muddatli



hamkorlikning tizimli vektori belgilangan. Bu shunchaki siyosiy signal emas, balki sanoat va qishloq xo‘jaligidan tortib, ekologiya va ta’limgacha bo‘lgan asosiy sohalarni qamrab olgan aniq harakatlar rejasidir. Bunday yaxlit yondashuv Xitoyning keng qamrovli sheriklik modeliga mos keladi, biz uni “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida ilgari suraypmiz.

2030-yilgacha tovar ayiriboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish

dasturi va sanoat kooperatsiyasi iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlaydi. Dengiz orqali tashish va “yashil” energiya sohasidagi kelishuvlar esa Kaspiy dengizi orqali tranzit uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Xitoy mintaqadagi eng yirik infratuzilma investori sifatida bunday loyihalarga katta qiziqish bildirmoqda, chunki ular bizning Markaziy Osiyo va Kavkazdagi logistika tashabbuslarimizni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida Tadbirkorlar kengashi hamda Sanoat va Iqtisodiy zonalar forumining tashkil etilishi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan innovatsion va pragmatik yondashuvni ifodalaydi. Ushbu mexanizmlar hukumatlararo kelishuvlarni shunchaki to‘ldirmaydi — ular biznes hamjamiyatlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa kanallarini yaratadi.

Mars SARIYEV,
siyosatshunos
(Qirg‘iziston):

— O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamlanib bormoqda, bu 2024-yilda imzolangan Ittifoqchilik shartnomasida ham o‘z tasdig‘ini topgan. 2030-yilga borib o‘zaro tovar ayiriboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish maqsadlari belgilab berildi, 2025-yil “Iqtisodiy hamkorlik yili” deb e’lon qilindi.

Bu galgi tashrif chog‘ida keng ko‘lamli kelishuvlar to‘plami imzolanganini ham tomonlarning uzoq muddatli o‘zaro manfaatli hamkorlikka intilishidan dalolat beradi. Bokuda O‘zbekiston elchixonasi yangi binosining ochilishi diplomatik infratuzilma kengayishi ramziga aylandi.



Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Janubiy Kavkazda o‘zining siyosiy va iqtisodiy mavqeyini mustahkamlamoqda. “O‘rta yo‘lak” kun tartibi faollashmoqda. Bu har ikki davlat transport-logistika hamkorligini kengaytirishi barobarida muqobil yo‘nalishlarni ochmoqda.

“

BIZNING PIROVARD MAQSADIMIZ, YO‘LIMIZ ANIQ.
PREZIDENTIMIZ TA’KIDLAGANIDEK, O‘ZBEKISTONDA YANGI UYG‘ONISH
DAVRI, YA’NI UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHNI O‘ZIMIZGA ASOSIY
MAQSAD QILIB BELGILADIK.

Tahlil

umumiy tajriba asosida o‘z mamlakati va xalqiga xos bo‘lgan xususiyatlarni e‘tiborga olgan holda rivojlangan jamiyat barpo etishning o‘ziga xos usullarini yaratishi kerak.

Prezidentimiz davlatni samarali boshqarish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va xalqimiz turmush darajasini yuksaltirish yo‘lida chuqur va puxta ishlab chiqilgan o‘ziga xos maktab yaratdi. Bu maktabning eng muhim jihati shundaki, unda davlatni boshqarish jarayoni umumxalq ishiga aylantirildi.

Poytaxtdan turib,
muammolarni ko‘rish qiyin...

Davlatimiz rahbari buning uchun, eng avvalo, sobiq ittifoq davrida boshlanib, 2016-yilgacha hukm surgan deyarli “yopiq jamiyat” siyosatini bekor qildi va mamlakatimizni dunyoga, dunyoni esa bizga ochib berdi. Xalqimizning o‘z fikrini ochiq va erkin namoyon qilish imkoniyati yaratildi.

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda odamlar bilan to‘siqlarsiz yil davomida doimiy muloqotni amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu maqsadda Prezidentning Xalq qabulxonalari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri virtual

BOQIY HAYOT FORMULASI

SUV TEJAMKORLIGIGA FAQAT TEXNOLOGIYA BILAN ERISHIB BO‘LMAYDI

Boshlanishi 1-betda

Shunday. Biz uzoq yillar “suv resurslari tugamaydi, suv tabiatdagi aylanma harakat jarayonida tiklanib, yangilanib turadi, suvning miqdori ham, sifati ham o‘zgarmaydi” degan nazariyani ongimizga mustahkam o‘‘mashtirib olgandik. Bu noto‘g‘ri illyuziya qobig‘ida suvga “sovuq” munosabatda bo‘lishda davom etaverdik. Qatra suvning qadriga yetmay, “suv tekin” deb oldimizdan oqqanni qadrlamadik. Oqibatda xavotirli raqamlar qog‘ozlardan hayotga ko‘chib bormoqda. Tabiatni inson izmiga bo‘ysundirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar oqibatida sayyoramizda bugungi kunga kelib tinchlik va xavfsizlik muammolarini chambarchas bog‘lovchi suv muammosi kuchaymoqda.

Bugun yer yuzidagi 2 milliarddan ziyod aholi toza ichimlik suvga muhtoj, 2 milliard 300 milliondan ortiq odam esa sanitariya talablariga javob bermaydigan obiyavotdan iste‘mol qilishga majbur. Mutaxassislar fikricha, 2050-yilga qadar suvga talab yana 50 foiz oshadi. Shu raqamlarning o‘zi ham tabiatning bebaho ne‘matidan tejamkorona, oqilona foydalanishga undaydi.

Keyingi yillarda suv iste‘moli shunday jadal sur‘atlar bilan o‘smoqdaki, insoniyat bugungi suv resurslari taqchilligi va sifati yomonlashib borishi sharoitida unga bo‘ladigan ehtiyojni qanday ta‘minlash haqida chuqur o‘yga tolmoqda. Bugungi kunga kelib suv resurslarini barqaror boshqarish va ulardan samarali foydalanishni ta‘minlash dunyoda butun boshli mintaqa va mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biriga aylandi. Mazkur masala suv resurslari cheklangan, iqtisodiyoti va aholisi tez o‘‘ib borayotgan, iqlim o‘zgarishi ta‘‘irlari tobora ko‘proq sezilayotgan Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik realliklar sharoitida o‘‘ta dolzarb va yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari ichida O‘zbekiston agrar salohiyati yuqori, ammo tabiiy resurslariga nisbatan mo‘‘adil munosabat talab etiladigan mamlakat. BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston “suv taqchilligi yuqori” bo‘lgan mamlakatlarga qatorlari turibdi. Mamlakatning asosiy suv manbalari

“Suv — hayot manbayi” degan ibora mashhur. Biroq so‘nggi yillardagi voqealar shunchaki shiorlar bilan ish bitmasligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Suv isrofi faqat tabiiy omillar tufayli emas, balki inson omili — e‘tiborsizlik, samarasiz boshqaruv oqibatida ham yuz bermoqda.

Dunyoda ekologik muammolar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda sanoatning qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tishi nafaqat zamonaviy trend, balki strategik zaruratga aylanmoqda.

Iqlim o‘zgarishlari, an’anaviy yonilg‘i resurslari qimmatlashuvi va ekologik talablar kuchayishi — bularning barchasi ishonchli va samarali energiya ta‘minotiga talabni oshirmoqda. Energoqarqorlik, ayniqsa, yirik sanoat korxonalari uchun, ularning raqobatdoshligini ta‘minlashda muhim omildir.

Hozirgi notinch va murakkab geosiyosiy vaziyat jahon bozorida neft va tabiiy gaz narxi keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, joriy yilning birgina iyun oyida Brent markali neftning bir bareli 10 dollardan ko‘proqqa oshdi. Tabiiy gaz bahosi ham oshib bormoqda. Agar iyun oyli boshida har bir kub gaz 3,460 dollardan sotilgan bo‘lsa, oy oxiriga kelib 3,714 dollarga yetdi. Keyingi bir yilda jahon bozorida tabiiy gaz narxi ikki barobar insoniyat kuzatish mumkin.

Shu sababli yurtimizda sanoatni toza energiyaga o‘tkazish siyosati nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun ham muhim. Bu ishlab chiqarishni samaradorligini ta‘minlash bilan birga kelajak avlod uchun so‘f muhit qoldirishga qaratilgan mas‘uliyatli yondashuvdir.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish borasida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yirik loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Jahonda ishlab chiqarish zanjiri va logistika bilan bog‘liq muammolarni qanchalik murakkabligiga qaramay, bu borada xalqaro yirik kompaniyalar bilan samarali ishlalmoqda.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilda O‘zbekistonda ehtiyojlarimiz uchun 117 milliard kilovatt-soat, 2035-yilda esa 135 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi talab etiladi. Bu hozirgidan 1,7 baravar ko‘p. Shu bois, yangi elektr stansiyalari va energiya saqlash quvvatlari barpo etishga zarurat tug‘iladi. Ularni tizimga ulash uchun 7 yilning ichida qanchalik tarmoq qurilib, raqamlashtirilgan boshqaruv joriy qilinadi. Bu orqali hududlarda energiya balansi ta‘minlanadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta‘minlashga qaratilgan

— Amudaryo va Sirdaryo davlat hududidan tashqarida shakllanadi. Shu bois, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda suv bilan bog‘liq muammolarning oldini olish, suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiyalash va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar kechmoqda. Uzoq yillar sohada samarali foydalanish, hisob yuritish, irrigatsiya tarmoqlarida tejamkor yangi texnologiyalarni qo‘llash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarurati mavjud edi.

Suvning 90 foizi qishloq xo‘jaligida ishlatiladi. Shu paytga qadar irrigatsiya tizimlari eskirgani va yo‘qotish darajasi yuqoriligi (40-50 foizgacha) bu sohadagi muammolarni kuchaytirar, hududlarda suvni boshqarish usuli eskicha bo‘lib, zamonaviy innovatsion tizimlar joriy etishni talab qilardi. Shu sababli keyingi yillarda suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirish uchun irrigatsiya tarmoqlarida yo‘qotiladigan suv miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish, sug‘oriladigan yerning



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlari bajarilayapti.

— Avvallari respublikamiz sug‘orish tarmoqlarining faqat 23 foizi betonlashgan tufayli ichki tarmoqlarda suv ko‘p yo‘qotilardi. Prezidentimiz raisligida 2024-yil 7-noyabr

yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, kanal hamda ariqlarni betonlash, suv boshqaruvini isloh qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratgan edi, — deydi irrigator Aktam Usmonov. — Darhaqiqat, suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirish uchun irrigatsiya tarmoqlaridagi yo‘qotishlar miqdorini kamaytirish kerak. Buning uchun sug‘oriladigan yerning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash zarur. Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan dolzarb vazifa — kanal va ariqlarni betonlash natijasida esa suvdan foydalanish koeffitsiyenti 90-95 foizgacha oshib, yo‘qotishlarning oldi olinadi. Shuningdek, bu tadbirlar dehqon dalasiga suv



investitsiya kirib keldi. Yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi avvalgi 59 milliarddan hozir 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. 2030-yilga borib yurtimiz aholisi 41 milliondan, iqtisodiyot hajmi 200 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.


— Jahondagi hozirgi notinch holat global energetik xavfsizlikka ham tahdid solyapti. Bu esa mamlakatimizda katta miqdorda qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni talab etadi, — deydi energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov. — Tabiiyki, bu elektr energiyasiga qo‘shimcha talab tug‘diradi. Shuning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng ishga solish choralari ko‘rilmoqda.

Taqdimotda bu yil amalga oshirilayotgan loyihalar va yaqin kelajakdagi rejalar haqida axborot berildi. Ulardan asosiy maqsad generatsiya, modernizatsiya va energiya samaradorligidir. Xususan, yil yakunigacha 12 ta quyosh va 4 ta shamol elektr stansiyasi, 12 ta

yetib borish vaqtini tejaydi, suvchi-miroblar mehnati yengillashadi.

Yurtimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eng ko‘p yetkazib beruvchi Samarqand viloyatida 2024-2025-yillarda belgilangan 5 ta muhim tumanlararo kanalning 15 kilometrida rekonstruksiya amalga oshirilmoqda. Shuningdek, “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari hisobidagi 364 kilometr sug‘orish, klaster va fermer xo‘jaliklari hisobidagi ichki sug‘orish tarmoqlaridan 1345 kilometri ham betonlashtirildi.

Suv tejamkorligida ilg‘or tajribalar va yangi sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimizning 2024-yil 5-yanvardagi “Quy i bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qator vazifalar belgilandi. Qarorga asosan, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha shaffof onlayn kredit ajratish imkonini beruvchi “Suvkredit.uz” elektron tizimi ishga tushirildi.



Ushbu platforma orqali 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yil muddatda 14 foiz miqdorida onlayn kreditlar ajratilmoqda. Shuningdek, fermer xo‘jaliklari va agroklastlar oldida turgan qator muammolarga yechim topildi. Jumladan, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kredit foizi miqdori 2 yillik imtiyozli davr bilan 14 foizga tushirildi.

Bundan tashqari, fermer xo‘jaliklari tomonidan kredit olish jarayonida garov ta‘minoti majburiyati bekor qilindi. Avvallari bankdan kredit olish, subsidiya rasmiylashtirish, hujjat yig‘ish, garov ta‘minoti masalasi bilan bog‘liq yugur-yugurlar va fermerlarni bezdiradigan boshqa noxush yumushlar soddalashtirildi. Bu kabi imkoniyatlar qisqa muddatda samarasini ko‘rsatmoqda. Jumladan, viloyatda 2025-yilda 13 ming 500 gektar maydonda tomchilatib, 3200 gektar maydonda yomg‘irlatib, 2600 gektar maydonda diskret, 5600 gektar maydonda egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish tizimi joriy etilmoqda. Bu orqali o‘rtacha 61 million kub metr suv tejaliishi va 18 ming gektar maydondagi takroriy ekinlarni suv bilan ta‘minlash imkoniyati yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Sovg‘a emas, omonat

Suv muammosi haqida gap ketar ekan, yana bir og‘riqli masala — yuqori hosil olishga bo‘lgan ishtiyiq asosida sug‘orilmaydigan yerlarga artezian “urish” urfga kirganini ta‘kidlash lozim. Bugungi kunda minglab gektar g‘alla maydonlari, paxta dalalari yer osti suvi bilan sug‘orilmoqda. Mamlakatdagi suv resurslari yildan yilga kamayib borayotgani, yer osti suviga ortgan bog‘liqlik va artezian quduqlar orqali suv olish amaliyoti keskin ko‘payishi bu muammoni yanada og‘irlashtirishi mumkin. Artezianni nazoratsiz qazish va ortiqcha foydalanish yer osti suv sathi keskin pasayishiga, tabiiy ekotizim buzilishiga va kelgusida qurg‘oqchilik xavfi ortishiga olib kelishi ehtimoli yuqori. Demak, joylarda hamon davom etayotgan toza artezian suviga bo‘layotgan “tajovuz”larni to‘xtatishimiz dardkor. Bu borada muayyan choralar ishlab chiqilmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, artezian suvidan 20 daqiqa oqqan suv sarfi evaziga tomchilatib sug‘orish bilan 8,4 tonna bug‘doy yoki 15 tonna kartoshka olish imkoni mavjud. Shunday ekan, toza ichimlik suvni bugundan qadrlab, samarali chora-tadbirlar belgilab olishimiz lozim. Bu borada tumanlardagi artezianlardan suv oluvchi barchaga majburiy tomchilatib sug‘orish tizimini qat‘iy joriy etish, tarmoqlarni to‘liq raqamlashtirish, mas‘ullar vakolatini kengaytirish kabilar orqali muqarrar muammoning oldini olishga erishishimiz mumkin.

Shu o‘rinda yana bir ma‘lumot. Dunyoda har yili 5 yoshdan kichik bo‘lgan o‘rtacha 297 ming bola tozalanmagan ichimlik suv iste‘mol qilgani yoki ana shunday suv bilan qo‘l yuvishi natijasida kasallanib vafot etmoqda. Shu dahshatli raqamlarning o‘zi ham tomchi suv qadriini bugundan anglashimiz uchun asos bo‘ladi, yo‘qsa, ertaga kelgusi avlod oldida aybdor bo‘lib qolishimiz aniq.

Sukunatdagi fig‘on

“Suv — hayot manbayi” degan ibora mashhur. Biroq so‘nggi yillardagi voqealar shunchaki shiorlar bilan ish bitmasligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Suv isrofi faqat tabiiy omillar tufayli emas, balki inson omili — e‘tiborsizlik, samarasiz boshqaruv oqibatida ham yuz bermoqda. Suv tejash faqat fermerlar yoki davlat muassasalarigagina daxldor bo‘lmay, har bir fuqaro, har bir oila, har bir tashkilot bu masalada mas‘uliyatni his etishi kerak. Og‘ir oqibatlarning oldini olish uchun hozirdan harakat zarur. Suvni tejash faqat qonun bilan emas, balki ma‘naviy tarbiya bilan ham amalga oshirilishi lozim. Bu borada esa suv tejash madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturlar orqali fuqarolarga suvning qadri, undan oqilona foydalanishning ahamiyati bog‘chadan boshlab tushuntirilishi, axborot makonida, ayniqsa, televideniye, internet olamida suv madaniyati haqida izchil, tizimli ta‘lim va targ‘ibot jarayonini yo‘lga qo‘yish kerak. Chunki inson ongi o‘zgarmas ekan, eng yaxshi texnologiya ham kutilgan samarani bermaydi.

Asosiy boyligimiz suv. Suv oddiy suyuqlik emas, yurt nafasi. Uni himoya qilmasak, suvsizlikdan faqat tuproq emas, umidlarni ham quriydi. Suvning sukunatdagi fig‘oniga quloq tutaylik. Bu tabiatning oxirgi ogohlantiruvchi bo‘lishi mumkin!

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

fermer xo‘jaliklari qo‘shimcha daromadga ega bo‘lyapti.

— Yer ostidan suv oladigan 8 mingga yaqin nasosimiz bor, — deydi Sh.Hamroyev. — Bularga ham quyosh panellari o‘rnatilib, o‘zini o‘zi elektr energiyasi bilan ta‘minlash yo‘lga qo‘yiladi. Natijada joriy yilning o‘zida 340 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejashiga erishiladi.

Qayd etish kerakki, 2017-yilda 8 milliard 300 million kilovatt-soat elektr energiyasi sarflangan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 6,5 milliard kilovatt-soatni tashkil etdi. Ya‘ni mana shu davrda salkam ikki milliard kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qilishga erishildi. Bu esa bugun mamlakatimizda sohaga berilayotgan e‘tibor, “yashil” energetikaga o‘tish borasida yaratilgan sharoit va rag‘batlantirishdir.

— Energiya samaradorligiga erishish borasida belgilangan vazifalar doirasida ayni paytda tajriba tariqasida Qashqadaryo viloyatining to‘rtta tumani hamda ijtimoiy soha obyektlarida o‘rganishlar olib borildi, — deydi Energiya samaradorligi milliy agentligi direktori Ziyoviddin Bahriiddinov. — Bu yo‘nalishda 208 mingga yaqin aholi xonadoni, 2600 dan ortiq ijtimoiy soha obyekting energiya iste‘moli va xarajatlari o‘rganib chiqildi. Bunda Prezidentimizning tegishli farmoni bilan alohida mexanizmlar joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2023-yil 1-apreldan “Quyoshli xonadon” dasturi doirasida xonadoniga quyosh panellarini o‘rnatgan jismoniy shaxslarga quyosh paneli orqali oshirib chiqarilgan va yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soati uchun 1000 so‘mdan subsidiya ajratilishi belgilangan.

Shu bilan birga, quyosh panellarini o‘rnatgan fuqarolar yer va mol-mulk solig‘idan ozod qilindi. Bundan tashqari, har yuridik shaxslar tomonidan umumiy foydalanishdagi tarmoqqa sotilgan elektr energiyasi uchun undiriladigan daromad solig‘ini ham to‘lamaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, sohadagi tizimli chora-tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad aholi o‘rtasida va tashkilotlarda energiya tejamkorligini oshirish, “yashil” texnologiyalarga o‘tishni rag‘batlantirishdan iborat.

Lutfulla XAYRULLAYEV,
jurnalist



ILM — TARBIYA — INNOVATSIYA

KELAJAK AVLOD KAMOLOTINING ENG ASOSIY USTUNIDIR



Fazliddin MO‘MINOV,
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi bo‘lim boshlig‘i

30-iyunni mamlakatimiz yoshlari qalbini to‘lqinlantiruvchi, davlat rahbari mehri, e‘tiborini namoyon etuvchi hamda ular hayotiga yangilanishlar olib kiruvchi sana deb atasak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki millat taqdirini, yurtning ertasini belgilaydigan katta kuch — yoshlarimiz orzu-istaklari va maqsadlari shu kuni bir joyda yana bir karra jamlanadi, uchrashadi va parvoz qiladi.

Davlatimiz rahbarining joriy yilda shu sana munosabati bilan o‘tkazilgan tantanalari marosimida “Bilagida kuch-g‘ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo‘sh urgan yigitlarimizni, bilim va odobda, aql-zakovatda tengsiz qizlarimizni ko‘rib, har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziydi”, degan so‘zlari yoshlarga mustahkam qanot bo‘ldi va ertasi uchun ko‘zlagan maqsadlariga chuqur mohiyat bag‘ishlagani aniq. Yoshlarimiz tashabbuslari, muvaffaqiyatlari, bosgan dadil qadamlari nafaqat tabrik, balki yangi O‘zbekiston kelajagining strategik xaritasi sifatida Prezidentimiz nutqida yangradi. Bu gal yoshlar xalq xizmatidagi davlat konsepsiyasining amaliy ifodasi, yosh avlodga ishonch va ularning qobiliyatiga bo‘lgan chuqur e‘tiborni yurakdan his etdi. Zotan, yoshlarga sifati ta‘lim-tarbiya berish, ularga zamonaviy kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni o‘rgatish, hayotda munosib o‘rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish yangi O‘zbekistonning eng asosiy vazifasi va burchiga aylangan. Ayniqsa, har bir yoshning ilm olishi, yangi-yangi g‘oyalar berishi, kashfiyot va loyihalar qilishi, izlanishi va harakatdan to‘xtamasligi doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanadi. Haqiqatki, oddiy oila farzandlari texnika yoki xorijiy tillarni o‘zlashtirishi mushkul edi, chunki ularni kelajakda paxta dalasi kutardi.

Shukrki, bugun O‘zbekistonda yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Ular ilmida, sportda va boshqa sohalarida yuksak marralarni egallamoqda. Har bir oila farzandi munosib sharoitlarda o‘zi istagan ilmlarni o‘zlashtiryapti. Bu davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar samarasini, albatta.

So‘nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo‘lgan rahbarlar

ulushi 37 foizdan 65 foizga oshgani ham buning yaqqol dalili. Xalq istagini ro‘yobga chiqarishda aynan iqtidorli va jonkuyar yoshlarga tayanilmoqda.

Yurtodoshlarimiz san‘at, sport sohalarida ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Yaqinda futbol bo‘yicha milliy terma jamoamiz tarixda ilk bor jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.

“Birinchisi va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!” deya ta‘kidladi Prezidentimiz.

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 325 ming yosh o‘qitilgan. O‘tgan yili 150 mingdan ziyod yigit-qiz xalqaro til sertifikatlarini olgan, bu 2023-yildagiga nisbatan 2 baravar ko‘p.

Bu yil 35 milliard dollarlik 8300 ta loyiha orqali 292 mingta ish o‘rni yaratilmoqda. Yana 500 mingta ish o‘rni yaratadigan 83 milliard dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Natijada “yashil iqtisodiyot”, sanoat, energetika, geologiya, muhandislik va boshqa sohalarida minglab mutaxassisga talab paydo bo‘ladi.

Davlatimiz rahbarining mazkur uchrashuvda ilgari surgan muhim tashabbuslariga e‘tibor qaratar ekanmiz, davlat siyosatining bosh vazifasi ham yoshlar manfaatlarini ustuvor etish ekaniga amin bo‘lamiz:

— Prezidentimiz farmoni bilan Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil etildi. Unga 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 o‘quvchi saralab olinib, 3 ta yo‘nalishda chuqurlashtirib o‘qitiladi;

— Milliy dastur asosida har yili eng salohiyatli 3 ming o‘quvchi tanlanib, dunyoning Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel kabi nufuzli oliyog‘hlariga tayyorlanadi. Shundan kamida 300 nafari ehtiyojmand oila farzandlari bo‘ladi;

— intellektni rivojlantirish bo‘yicha 100 ta loyiha amalga oshiriladi, sun‘iy intellekt milliy modelini ishlab chiqish boshlanadi;

o‘qituvchisi o‘qitiladi;

— bu yil 50 ming qiz “Raqqamli avlod qizlari” loyihasiga jalb qilinadi;

— maktab o‘quvchilari uchun “Mohirlik va biznes soati tashabbusi” amalga oshiriladi;

— “Eng yaxshi kreativ g‘oya” tanlovi o‘tkazilib, g‘oliblarga 300 million so‘mgacha grant beriladi;

— “Harakatda daromad” elektron tizimi orqali 3 milliongacha yosh malaka talab qilmaydigan ishlar bilan band qilinadi;



— “Kelajak liderlari” dasturi bilan 100 nafar yosh rahbarlikka tayyorlanadi;

— maktablar o‘rtasidagi aktyorlik, kitobxonlik, musiqa, tanlovlarida g‘olib jamoalar va ularning a‘zolari madaniyat hamda san‘at oliyog‘hlariga imtiyozli qabul qilinadi;

— “Iqtidor” maktab ansambllari tanlovining viloyat bosqichi g‘oliblari bolalar musiqa va san‘at maktablarida bepul o‘qitiladi;



— “Bir million sun‘iy intellekt yetakchilari” dasturi doirasida uch yil ichida “A-STUDY” platformasi orqali 100 ming yosh o‘qitiladi. O‘quv dasturlarida sun‘iy intellekt ta‘lim dasturi ajratiladi. Viloyatlardan 100 nafardan innovator

yoshlarni vatanparvarlik va mardlik ruhida tarbiyalash maqsadida “Shijoat va g‘ayrat” harbiy-sport musobaqalari o‘tkaziladi, G‘alaba bog‘idagi “Millat fidoyilari” monumentiga ziyoratlar tashkil qilinadi.



Shuningdek, 2021-2024-yillarda 127,8 mingdan ortiq ishsiz yosh qisqa muddatli kurslarda o‘qitildi. 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab 233 ta texnikumda o‘quv jarayoni kredit-modul tizimiga o‘tkazildi. Texnikumlarda qishloq xo‘jaligi, turizm, irrigatsiya va melioratsiya, xizmat ko‘rsatish, veterinariya, axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo‘nalishlarida to‘liq davlat granti asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Qashqadaryo viloyatida 2 ta texnikumda Germaniyada ta‘limni davom ettirish imkoniyatini beruvchi “Ausbildung” dasturlari joriy etildi.

Oliy ta‘limdagi o‘zgarishlar

Shuningdek, oliy ta‘lim tizimida ham tub bulirishlar talaygina. So‘nggi besh yilda oliyog‘hlar soni 108 tadan 201 taga yetkazilib, qamrov darajasi 20 foizdan 43 foizgacha oshdi. Davlat oliyog‘hlariga qabul kvotalari 2024/2025-yilda 212,374 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich so‘nggi 5 yilda 2 barobar oshdi. Sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida 70 ta nodavlat oliy ta‘lim muassasasi tashkil etildi. Xorijiy oliyog‘hlar soni 31 taga, davlat oliy ta‘lim muassasalari esa 101 taga, masofaviy ta‘lim shaklida kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari soni 21 taga yetkazildi.

Abituriyentlarga qabul jarayonlarida 5 ta ta‘lim yo‘nalishi va oliygohni tanlash imkoniyati yaratildi. Xorijiy davlatlarning yetakchi oliyog‘hlar bilan hamkorlikda qo‘shma ta‘lim dasturlari yo‘lga qo‘yildi. Qizlar uchun alohida davlat grantlari ajratildi, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar uchun davlat granti 2 barobar oshirildi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 2 foiz, yetim abituriyentlar uchun 1 foizli qo‘shimcha davlat granti kvotalari ajratilmoqda.

2024/2025-o‘quv yilidan ta‘lim granti asosida tahsil olgan talabalarning o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng kamida 3 yil ishlab berish majburiyati bekor qilindi. Imtihonlar “avval test, so‘ng tanlov” tamoyiliga muvofiq

Kasbiy ta‘limda yangi standartlar

Yoshlarga keng imkoniyat taqdim etuvchi bu kabi islohotlar barobarida O‘zbekistonda 3 yillik majburiy ta‘lim shaklidan voz kechilib, UNESCOning xalqaro ta‘lim standartlariga mos, uch bosqichli uzluksiz kasbiy ta‘lim tizimi yaratildi. Kasbiy ta‘lim muassasalarida kunduzgi, kechki, sirtqi va dual ta‘lim shakllarida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 2017-2024-yillarda 1 million 250 ming 236 o‘quvchi va kasb-hunar egallash istagida bo‘lgan katta yoshdagi fuqarolar kasbiy ta‘lim muassasalariga qabul qilindi.

Germaniya tajribasi asosida 245 ta kasbiy ta‘lim muassasasida dual ta‘lim shakli joriy etildi. Xususan, Germaniyaning “Papenburg” kabi kompaniyalari uchun maqsadli kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hozir 3029 o‘quvchi dual ta‘lim shaklida davlat granti asosida tahsil olmoqda. 367,2 mingdan ortiq o‘quvchi 310 ta kasb bo‘yicha kasb-hunarga o‘qitilmoqda.



majmuasi” MCHJ hamkorligida “Gaz-kimyo va energetika” ilg‘or muhandislik maktabi tashkil etilgan. Unda “tarmoq — korxona — oliygoh” tamoyili yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur maktab sohada kadrlar tayyorlashning muhim tizimiga aylandi.

Ilg‘or muhandislik maktabi zamonaviy kadrlar tayyorlashni maqsad qilgan. Bunday kadrlar atrof-muhitni muhofaza qilishga jiddiy e‘tibor beradigan, yuqori va ko‘p tarmoqli texnologiyalarni o‘zlashtirishga qodir bo‘ladi. Ayni paytda kreativ fikrlaydigan, rationalizatorlik takliflarini ishlab chiqadigan “muhandis-tadqiqotchi” malakasiga ega yangi avlod mutaxassislari tayyorlanadi.

— Joriy yilning 5-iyunidan boshlab yurtimizdagi oliy va kasbiy ta‘lim

muassasalariga qabul jarayoni boshlandi. Universitetimizda abituriyentlar hujjatini qabul qilish ishlari qizg‘in olib borilmoqda, — deydi Qarshi davlat texnika universiteti 2025-2026-o‘quv yili uchun qabul bo‘limi mas‘ul kotibi Sanjar Toshtemirov. — Ma‘lumki, Prezidentimiz joriy yil 5-mayda “Ta‘lim sifatini ta‘minlash va ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonni imzolagan edi. Unga ko‘ra, 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab ta‘limning sirtqi shakliga qabul tugatildi. Ayni paytda masofaviy ta‘lim, kechki va maqbullashtirilgan kunduzgi “Part-time” ta‘lim shakllarini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqib, universitetimizda hozir ta‘limning kunduzgi,

bir vaqtda o‘tkazilishi belgilandi. Talabalarga akademik mobillik dasturlari asosida o‘qishini davom ettirish imkoniyati yaratildi. Pedagogika sohasi talabalari uchun “4+2” tartibida o‘quv mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yildi, bunda 2 kun maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida amaliyot o‘tash nazarda tutilgan.

To‘lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun imtiyozli ta‘lim kreditlari ajratilishining yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi, ayniqsa, qizlar uchun ta‘lim kreditlari foizsiz belgilandi. Davlat oliyog‘hlarining magistratura bosqichiga qabul qilingan xotin-qizlarning kontraktini davlat byudjetidan qoplash uchun uch yilda jami 285,8 milliard so‘m to‘lab berildi.

Izlanishlar doimiy qo‘llab-quvvatlanmoqda

Ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Yoshlar akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 64 ta oliygohda va 14 ta hududda “Yoshlar akademiyasi liderlari” tizimi joriy etildi. Yoshlar akademiyasi a‘zolari robototexnika sohasida xalqaro musobaqalarda jami 5 ta oltin, 13 ta kumush, 16 ta bronza medal qo‘lga kiritdi. 2019-2024-yillarda 5909 yosh Yoshlar akademiyasi a‘zolariga qabul qilingan.

“Mirzo Ulug‘bek vorislari”, “TechnoWays” texnologik rivojlanish marafoni, “Bo‘ljak olim”, “Akademik harakatchanlik”, “Ayollar biznesi uchun birinchi qadam” kabi 50 dan ortiq tanlov tashkil qilinib, 110 mingdan ziyod yosh jalb etildi. Doktorantura ajratilgan kvotalar 2017-yildagiga nisbatan 10,3 barobar oshdi. 2021-yildan buyon har yili ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan (40 yoshgacha bo‘lgan) iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlovchi “Akademik harakatchanlik” dasturi e‘lon qilib kelinmoqda. 2018-2025-yillar mobaynida 1111 ta yosh olim yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli stajirovkaga yuborildi.

2019-2025-yillarda 217,7 milliard so‘mlik 384 ta startup loyiha moliyalashtirildi, shundan yoshlarga oid 87,9 milliard so‘mlik 166 ta startup loyiha qo‘llab-quvvatlandi.

2021-2025-yillarda yurtimizning 13 hududida yoshlar texnoparklari tashkil etildi. Bugungi kunda ulardagi 7 turdagi o‘quv kurslariga 15-30 yoshdagi 40 mingdan ortiq yosh qamrab olindi. Dastur bitiruvchilari tomonidan ishlab chiqilgan 82 ta startup loyihaga 24,7 milliard so‘m jalb etildi.

Xulosa o‘rmda aytish joizki, kelgusi ikki yilda ham yoshlar siyosatida keng qamrovli ishlar rejalashtirilgan. Kasbiy ta‘lim tashkilotlariga 200 ming o‘quvchi qabul qilinadi, qo‘shimcha 30 ming o‘quvchi dual ta‘limga jalb etiladi. 25 ming ishsiz yosh va xotin-qiz qisqa muddatli kurslarda o‘qitiladi. 3 ming o‘quvchi ingliz, nemis, rus, koreys va yapon tillariga o‘qitiladi. 300 ming o‘quvchining amaliyoti korxonalarda tashkil etiladi.

14 ta texnikumda Germaniyada ta‘limni davom ettirish imkoniyatini beruvchi “Ausbildung” dasturlari joriy etiladi.

Moliyaviy mustaqil oliyog‘hlar tomonidan kambag‘al oila farzandlari uchun 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan grant ajratiladi. Kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga davlat granti asosida o‘qish imkoniyati yaratiladi.

300 dan ortiq yosh olim xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkaga yuboriladi. Startup loyihalarni inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturlarida o‘qitish orqali moliyalashtirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bu bilan muvaffaqiyatli amalga oshirilgan loyihalar soni 60 foiz o‘shishiga erishiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida “Mentorlar maktabi” tashkil etiladi. Yoshlar tomonidan 500 dan ortiq innovatsion mashulotlar va xizmat ishlab chiqarish hamda 3000 dan ziyod ish o‘rni yaratishga erishiladi. Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonda yoshlarning ta‘lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga qaratilgan bo‘lib, mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shadi.

masofaviy va kechki shakllari bo‘yicha qabul reja qilingan.

Xususan, kunduzgi ta‘limga 69 ta ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha 3360 nafar, kechki ta‘limga 54 ta yo‘nalishda 1450 nafar va masofaviyga 19 ta ta‘lim yo‘nalishiga 550 nafar, jami 5210 nafar talaba o‘qishga qabul qilinadi. Shuningdek, 71 ta magistratura mutaxassisligi bo‘yicha 497 nafar kishi qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Masofaviy ta‘lim yo‘lga qo‘yilishi talabalar uchun juda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bu, ayniqsa, ishdan ajralmagan holda oliy ta‘limga ehtiyoji borlar uchun katta imkoniyat. Chunki masofaviy ta‘limda talaba qayerda bo‘lsa ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta‘lim dasturini o‘zlashtirish uchun imkoniyat beradi. Shu bois, o‘quv reja va dasturlarda barcha fandan masofaviy ta‘lim olish imkoni bo‘ladi. Talabalar o‘quv kontentini qamrab oladigan elektron o‘quv-metodik majmualar, ilmiy va o‘quv adabiyotlarining elektron bazasi bilan to‘la ta‘minlanadi.

Bizda masofaviy ta‘limni tashkil etish uchun barcha imkoniyat mavjud. Hozir 19 ta yo‘nalishda masofaviy ta‘limni yo‘lga qo‘yishni reja qilganmiz. Keyingi yillarda ushbu ko‘rsatkichni bosqichma-bosqich oshirib boramiz.

Joriy yilda ilk bor abituriyentlarni qabul qilayotgan universitet texnika yo‘nalishiga qiziqadigan yoshlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Muhimi, mazkur oliygohning bitiruvchilari sabab kelgusida vohadagi sanoat korxonalari uchun zarur bo‘lgan kadrlar sinfi yaratiladi. Ular o‘z o‘rnida mamlakat iqtisodiyotini ko‘taradigan mutaxassislar, yetuk shaxslar bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma‘nod, ushbu ta‘lim dargohini zamonaviy mutaxassislar sanoati deyish mumkin.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ZAMONAVIY MUTAXASSISLAR SANOATI



Yuksalish pallas

Qashqadaryodagi yirik sanoat korxonalaridan biri “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MCHJ hisoblanadi. Bu korxonada ishlashni ko‘p yoshlar orzu qiladi. Bu orzuga erishish esa yaxshi bilim, sohaviy ko‘nikma talab etadi.

Mirjahan Numatov oliygohni yaxshi baholar bilan tamolaganiga ko‘p bo‘lmadi. Tengdoshlari turli joylarga ishga kirish istagida hujjat ko‘tarib yurganida u buning uddasidan chiqib bo‘lgan edi. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q, albatta. O‘qish chog‘ida vaqtini kitob o‘qishga, sohani yanada chuqurroq anglashga sarflardi. Buning uchun ustozlaridan savollariga javob izar, doim bilimni mustahkamlashga intilardi. Natijada talabalar o‘rtasida tashkil etiladigan bilimlar bellashuvida doim faollar qatoridan joy olib keldi. Bunday izlanuvchanlik, harakat samara berdi.

“Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MCHJda doim yosh bilimdonlarni saralab, ularga stipendiya berish an‘anasi bor. Buning uchun ular talabalar orasida tanlov o‘tkazib keladi. O‘shanday tanlovda qahramonimiz birinchilar qatoridan joy oldi. Natijada bir yil davomida stipendiya olish baxtiga erishdi. Quvonarlisi, moddiy rag‘bat bilan birga mazkur korxonaga ishga kirish uchun imtiyozga ham ega bo‘ldi. Bugun u korxonaning yetakchi xodimlaridan biri.

Mirjahonning ushbu yutuqlari endigina maktabni bitirayotgan yoshlarda havas

uyg‘otdi. Ularning ko‘pchiligi joriy yilda aynan u o‘qilgan oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirishga otlandi. Hozir mazkur oliygohda yangiliklarga qo‘l urilib, voha yoshlari uchun imkoniyatlar eshigi ochilyapti. Xususan, davlatimiz rahbarining 2024-yil 10-dekabrda “Qarshi davlat texnika universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali hamda Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filiali negizida Qarshi davlat texnika universiteti tashkil etildi.

Bugun Qashqadaryoda nufuzli oliyog‘hlardan biri sifatida ish boshlagan mazkur universitet talabalarga texnika yo‘nalishida yuqori darajali bilim beradigan maskanga aylandi. Yana bir asosiy jihat, Qashqadaryo sanoati rivojlangan viloyatlardan biri hisoblanadi. Shu paytga qadar hududda yetuk, bilimli kadrlar bilan ta‘minlashda kompleks yechim bera oladigan oliy ta‘lim muassasasi yo‘q edi. Bu universitetda asosiy e‘tibor texnik sohalar bo‘yicha kadrlar


tayyorlash talabini qo‘yadi. Shu bois, oliygohda mazkur yo‘nalishga e‘tibor kuchaytirildi. Xususan, muhandislik, geologiya, ishlab chiqarish, qurilish, transport, energetika, axborot texnologiyalari, dasturlash, xizmat ko‘rsatish hamda irrigatsiya va agrotexnologiyalar kabi yo‘nalishlarga ustuvorlik berildi. Natijada universitetning yirik korxonalar bilan kadrlar tayyorlash borasida hamkorlik imkoniyati kengaydi.

Hozir yirik zavodlar, ishlab chiqarish muassasalari mutaxassislari ta‘lim jarayoniga jalb etilgan. Shu orqali stipendiya va amaliyot dasturlari izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ayni paytda dual ta‘limni tashkil etish borasida hamkorlik shartnomalari imzolangan.

Bugun universitet xorijdagi yetakchi oliy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilib, imkoniyatlarini yanada kengaytirish yo‘lidan bormoqda. Shu orqali talabalarining akademik almashinuvini ta‘minlash yo‘lga qo‘yiladi. Misol uchun, hozir Qarshi davlat texnika universiteti va Belarus milliy texnika universiteti hamkorligida “2+2” ta‘lim dasturi asosida talabalar tahsil olmoqda.

Shu bilan birga, talaba va professor-o‘qituvchilarning sanoat korxonalarida malakaviy amaliyot va stajirovka o‘tashini yo‘lga qo‘yish ham yaxshi samara beradi. Natijada yangi o‘quv qo‘llanmalar, yangi avlod darsliklari yaratiladi. Ilmiy tadqiqot ishlari, sinovlar zamonaviy laboratoriyalarda o‘tkaziladi. Amaliy va fundamental ilmiy tadqiqot ishlari va innovatsion loyihalarining samaradorligi oshadi.

Universitet va “Sho‘rtan gaz-kimyo



Millat fidoyilari

OYQORNING MARD O‘G‘LONI

Jizzax viloyatining Baxmal tumani markazi O‘smat shaharchasidagi mahallalardan biri O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari chegara qismida xizmat burchini o‘tash davrida halok bo‘lgan harbiy xizmatchi Qutlug‘jon Rahmonov xotirasiga “Qutlug‘obod” deb nomlangan.

O‘smat shaharchasi va uning tarkibidagi ushbu mahalla qadim tarixi, bu yerda yashab o‘tgan buyuk kishilari tufayli yurtimizning mashhur joylaridan biri sanaladi. Mahallada “O‘smat ota” ziyoratgohi bor. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ushbu ziyoratgohdagi qabr islom madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ va mashhur olimlardan biri Abulfath Muhammad ibn Abdulhamid ibn al-Hasan al-Usmandiyya taalluqli.

Ushbu mahallaning Yo‘ldoshboy qishlog‘ida tanig‘li shoir, yozuvchi, yirik sharqshunos olim Bahrom Ibrohimov tug‘ilib voyaga yetgan. Ikkinchi jahon urushi arafasida hamda urush yillari xorijda o‘ta muhim maxfiy topshiriqlarni bajarib, g‘alabaga beqiyos hissa qo‘shgan bu



Qutlug‘jonning harbiylikni tanlashi bejiz emasdi. Uning qisqa hayot yo‘li vatanimizdagi katta o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keldi. 1991-yil 1-sentabrda — O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e‘lon qilingan sanada 1-sinfga borgan. Hali daftarning birinchi sahifasidek toza qalblarga yurtida ro‘y bergan buyuk tarixiy o‘zgarish — mustaqillik haqidagi tasavvurlar bitilgan.

insonni ko‘pchilik “Ilon izidan”, “Maxsus topshiriq” “So‘nggi va birinchi subhimd” romanlari va shu nomdagi filmlaming bosh qahramoni prototipi — razvedkachii sifatida ham biladi.

Qutlug‘jon Rahmonov ushbu tabarruk mahallada yashagan ulug‘ insonlarning avlodi. U 2002-yilda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan. 2004-yildan 2008-yilga qadar DXX chegara qo‘shinlari safida shartnoma asosida xizmatni davom ettirgan.

Qutlug‘jonning harbiylikni tanlashi bejiz emasdi. Uning qisqa hayot yo‘li vatanimizdagi katta o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keldi. 1991-yil 1-sentabrda — O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e‘lon qilingan sanada 1-sinfga borgan. Hali daftarning birinchi sahifasidek toza qalblarga yurtida ro‘y bergan buyuk tarixiy o‘zgarish — mustaqillik haqidagi tasavvurlar bitilgan.

— 1990-yillarning boshida yurtimizda kechgan siyosiy jarayonlar yoshlar ongining shakllanishida muhim o‘rin tutdi, — deydi Qutlug‘jonning sinf rahbari Turdimurod Beknazarov. — Birinchi sinfda o‘qigan paytlari-dayoq Qutlug‘jonning qalbiga ona yurt mehri, vatan himoyasi haqida dastlabki tushunchalar joylashgan. O‘sha yillari maktablarda mustaqillik g‘oyalari singdirishga katta e‘tibor qaratilgan tufayli yoshlar siyosiy jarayonlarga faol munosabatda bo‘lib ulg‘aydi. Qutlug‘jon barcha fandan a‘lo baholarga o‘qish bilan birga haqiqiy vatanparvar bo‘lib ulg‘aydi. O‘quvchilar bilan o‘tkazgan subhatlarimda, yozdirgan insholarimda u bildirgan fikr-mulohazalardan yurtni sevis, burchga mas‘uliyat hissi sezilib turardi. Bu ezgu tuyg‘ular uning bo‘yiga, yoshiga monand o‘sib bordi. Shuning uchun o‘quvchimning vatanimiz sarhadlarini, xalqimizning tinchligini himoya qilishda jasorat ko‘rsatib, jonini fido qilganini tasodif deb o‘ylamayman. Chunki Qutlug‘jon uchun “vatan”, “vatanni himoya qilish”, “burch” degan so‘zlar oddiy emas, balki hayoti mazmunini ifodalovchi tushunchalar edi. Shu bois uning jasoratini vatanga muhabbatning amaldagi ifodasi, haqiqiy mardlik va qahramonlik deb bilaman.

Muallim aytganidek, vatanga muhabbat, burch, sadoqat tuyg‘ulari shunchaki chiroyli so‘zlar, balandparvoz shiorlar emasligini to‘g‘ri anglagan insonlar yurtning haqiqiy posbonlari bo‘la oladi. Ular kerak bo‘lsa, vatan uchun jon berishga ham tayyor. Qutlug‘jon Rahmonov chegara xizmatiga kirishda odamiylikning bu qonuniyatini yurakdan his etgan, albatta. Buni hayotida isbotladi ham.

U xizmat davomida jangovar topshiriqlarni a‘lo darajada bajarishi bilan namuna bo‘lib keldi. Xizmat davomida tezkor amaliyotlarni bajarishdagi yutuqlik shaxsiy varag‘ida qayd etilgan. Qutlug‘jon jangovar topshiriqlarni bajarishda jinoyi guruhlar tomonidan katta miqdordagi moddiy tovar buyumlari olib o‘tilishiga chek qo‘ygan, chegara buzilishi bilan bog‘liq ko‘pgina jinoyi harakatlarni bartaraf etgan. Ammo jangovar topshiriqlarni bajarish har doim ham bexatar bo‘lmaydi. Ayniqsa, 15-20 yil ilgari qo‘shni davlatlar bilan chegaralardagi vaziyat ancha murakkab edi. Qutlug‘jonning

xizmat davri ham o‘sha paytlarga to‘g‘ri kelgandi.

2008-yil 13-noyabrdan 14-noyabrga o‘tar kechasi yurtimiz chegara hududlaridan birida noxush voqea yuz berdi. Farg‘ona viloyatining Sattorobod aholi punkti yaqinidagi davlat chegarasida reydl olib borilayotgan paytda Qirg‘iziston hududidan bir guruh shaxs mamlakatimiz hududiga noqonuniy o‘tishga urinayotgani aniqlandi.



Hodisadan xabardor bo‘lgan Qutlug‘jon Rahmonov xizmat burchini yuksak mas‘uliyat va jasorat bilan ado etdi. U jinoyatchilarning mamlakat hududiga noqonuniy o‘tib, yashirinish niyatida ekanini anglab, avtotransport vositasidan foydalangan holda davlat chegarasini buzib o‘tishga uringan jinoyatchilarga to‘siq qo‘yish maqsadida samarali harakatlarni bajaradi.

Biroq jinoyatchilar qanday qilib bo‘lsa ham chegaradan o‘tib ketishga intilib, avtomashinani Qutlug‘jon Rahmonov tomon haydaydi. Chegarachimiz so‘nggi lahzagacha burchiga sadoqat bilan yondashib, jiddiy qarshilik ko‘rsatadi va jinoyatchilarning rejasini amalga oshirishiga yo‘l qo‘ymaslikka urinadi. Ammo shifokorlar ko‘rsatgan tezkor tibbiy yordamga qaramay, olgan og‘ir tan jarohati tufayli vatan himoyasi yo‘lida qahramonlarcha halok bo‘ladi.

Bugun ushbu voqeaga o‘n yetti yil bo‘ldi. Hozir davlatimiz chegaralari tinch, barqaror. Sarhadlarimizni Qutlug‘jonga o‘xshagan burchiga sadoqatli, jasur va mard yigitlar qo‘riqlamoqda. Ular safida Qutlug‘jon Rahmonovning nomi ham bor. Uning ism-

familiyasi o‘zi xizmat qilgan chegara qismi shaxsiy tarkibi ro‘yxatiga mangu kiritilgan. Harbiy an‘anaga ko‘ra, har kunlik yo‘qlamada uning nomi o‘qilganda bir ovozdan “Safda!” deb javob beriladi.

Davlat chegarasi daxlsizligi, vatan xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha jangovar vazifani bajarishda ko‘rsatgan mardligi, fidoyiligi uchun Qutlug‘jon Rahmonov vafotidan so‘ng “Jasorat” medali bilan taqdirlangan.

Jamoatchilik taklifi bilan uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida tug‘ilib o‘sgan mahallasiga “Qutlug‘obod” deb nom berildi. U o‘qigan Baxmal tumanidagi 3-maktabda Qutlug‘jon Rahmonov xotirasiga bag‘ishlab alohida xona ajratilgan. Unda chegara qo‘shinlari hayotini aks ettiruvchi stend, buklet va ko‘plab fotosuratlar, Qutlug‘jonning yaqinlariga, do‘stlariga yozgan maktublari qo‘yilgan.

Tuman “Xalq ijodiyoti va tarixi” muzeyida Baxmalning boy tarixi, mashhur kishilari qatoridan Qutlug‘jon Rahmonov xotirasi uchun ham alohida joy ajratilgan. Muzeyda unga tegishli 18 ta eksponat bor. Har yili muzeyga minglab yurtdoshlarimiz, xususan, o‘quvchi yoshlar va harbiy qism xizmatchilari keladi.

— Qutlug‘jon harbiylikni tanlaganida, gapning ochig‘i, juda quvonganman, qalbm g‘ururga to‘lgan, — deydi otasi Abdumannon Rahmonov. — Farzandimning chegarachi bo‘lishiga qarshilik qilmay, onasi bilan birga oq fotiha berganmiz. Nachora, harbiylik oson emas. Ammo yaqinlarni yo‘qotish, ayniqsa, farzanddan ayrilish ota-onaga uchun juda og‘ir. Bu qismat hech kimning boshiga tushmasin. Har yili O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topgan sana, Vatan himoyachilari hamda Xotira va qadrlash kunlarida Qutlug‘jonni xotirlab, uyimizga hududdagi chegara qismi xizmatchilari, u o‘qigan maktab o‘quvchilari keladi. O‘g‘lim yaxshi nom qoldirib ketgani, elimiz uni unutmagani ko‘nglimizga tasalli beradi. Yaqinda Prezidentimizning G‘alaba

bog‘idagi “Millat fidoyilari” monumenti oldida bizga qarata aytgan “Bu jasur o‘g‘lonlar tahlikali vaziyatda o‘zini o‘ylamay, burchiga sodiq qolib, xalqi uchun jonini fido qilgan. Hozirgi tinchlikda, osmonimiz musaffoligida ularning katta hisssasi bor. Oilalari, barcha yaqinlari bilishi kerakki, ular oramizda xuddi tirikdek, nomlari hech qachon o‘chmaydi. Buni mana shu maydonda muhrlab qo‘ydik. Men ularning ota-onalariga, turmush o‘rtog‘lariga ta‘zim qilaman. Farzandlari qahramon otalariga munosib bo‘lishini istayman”, degan so‘zlari ko‘nglimizni tog‘dek ko‘tardi.

Qutlug‘obod mahallasi Baxmal tumanidagi turistik maskanlardan. U yerdagi “O‘smat ota” ziyoratgohiga yurtimizning turli hududidan, xorijiy mamlakatlardan sayyohlar kelib turadi. Ular Oyqor tog‘lari bag‘rida joylashgan mahallaning noyob tabiati, tarixiy yodgorliklari, o‘ziga xos etnografiyasi, aholining urf-odatlaridan zavq oladi. Mahalla nomi bilan qiziquvchilarga qutlug‘obodlik har bir kishi Qutlug‘jon Rahmonov jasoratini haqida so‘zlab beradi. Jasur chegarachining nomi qayta-qayta tilga olinadi. Aslida, inson umri yillar bilan emas, balki qilgan ezgu amallari va hayotining mazmunini bilan o‘lchanadi. Shu bois, Qutlug‘jon Rahmonov nomi, jasorati xalqimiz xotirasida umrbod yashaydi.

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tinchlik shukronasi

FARZANDLARINGIZ KO‘CHADA XOTIRJAM YURSA...

Bugungi notinch dunyoda TINCHLIK so‘zi ko‘plab insonlar uchun orzu, ayrimlar uchun esa faqatgina umidga aylangan. Dunyo bo‘ylab millionlab bolalar maktabga borish o‘rniga pana joylarda o‘tiribdi, o‘quv qurollaridan foydalanib rasmlar chizish o‘rniga o‘q ovozlari ostida omon qolish haqida o‘ylayapti. Bolalarcha bekinmachaqq o‘ynash o‘rniga jonini saqlash uchun yashirinib ulg‘aymoqda.



Ko‘plab mamlakatlarda ota-onalar farzandlarini maktabga yuborishga emas, balki ularni qayerga yashirishni o‘ylab hayot kechirmoqda. Ularning uyqulari tinch emas, hayoti qo‘rquv bilan to‘lgan. Ijtimoiy tarmoqda tarqalgan bir surat qalbimni larzaga solgan edi. Bir bola maktab formasida, portlashdan yonib ketgan sinfxona qarshisida qo‘rquvdan nima qilishini bilmay o‘tiribdi. Qo‘lida kitob, kiyimlari yirtilib ketgan, ko‘zlarida qo‘rquv qotib qolgan.

O‘sha suratni ko‘rib, ko‘z oldimga bolalarim keldi. Ular toza maktab formasida, kulib-o‘ynab, bexavotir darslarga borib kelmoqda. Turli voqealarni ko‘rib, biz — O‘zbekiston fuqarolari qanchalar baxtli ekanimizni anglaymiz. Bugun

bolalarimizning erkin o‘qishi, tinch yashashi, ko‘chada tengdoshlari bilan o‘ynab yurishi shunchaki oddiy holat emas, bu tinchlik va barqarorlikning asl ko‘rinishidir.

Jamoa transportida ikki ayolning subhatini eshitgandim. “O‘g‘lim 2-sinfda o‘qiadi. Uni har kuni maktabga yuborib, ishga ketaman. Telefoni yo‘q, xavotir olmayman. Maktabga yetib borsa, o‘qituvchisi xabar beradi, qaytsa ham mahallada hamma tanish, xavfsiz. Ko‘nglim shundan xotirjam”, deydi ulardan biri.

Ota-onalarning qalbi xotirjam bo‘lsa, kunida baraka bo‘ladi. Agar ota ertalab ishga ketib, ona farzandini maktabu bog‘chaga, o‘quv kurslariga yuborib, xotirjam uy ishlari bilan shug‘ullansa yoki ishga ketsa, bundan ortiq ne‘mat bormi?

Hayotiy tashabbuslar

Tadbirkor Rustam Xudoyqulov chuyalik mashhur Toshqul boboning o‘n birinchi farzandi. Toshqul boboni mashhur deiyshga arziguqlik sabablar ko‘p. Shulardan biri mo‘ysafdnning 16 o‘g‘il-qizi borligidir. Ha, Toshqul bobo umr yo‘ldoshi Menixol aya bilan birga to‘rt o‘g‘il va o‘n ikki qizni halol luqma bilan voyaga yetkazgan. Shu bois, qishloqdoshlar ularni qahramon deb atagan.

BOBOMEROS HUNAR — ORZULARGA QANOT

Xudoyqul bobo qo‘ligul usta bo‘lgan. Yog‘ochdan turli anjomlar yasab nafaqat mahallasi, balki Nurota tumanida dong taratgan. Chuya qishlog‘idagi eski masjid ustalarini otaxonning mehnat mahsulidir. Toshqul bobo yog‘och bilan ishlash sirlarini otasidan o‘rgangan. Shu hunar yillar davomida oila iqtisodini ta‘minlagan.

— Otam, asosan, omoch yasari edi, — deb eslaydi Rustam Xudoyqulov. — Men yog‘ochsozlik bo‘yicha uchunchi avlodman. Otamning yonida yurib, yog‘och tanlash, unga ishlov berish bo‘yicha



dastlabki tushunchalarim paydo bo‘lgan. Boshida qiyindek tuyulgan mehnat bora-bora sevimli kasbinga aylandi. 2006-yil Rossiyaqa ketib, yog‘ochni qayta ishlash zavodida uzoq yil ishladim. U yerda oddiy ishchidan direktor o‘rinbosari darajasigacha ko‘tarildim. Ammo doim yurtga qaytish, hunarimni shu yerda rivojlantirish haqida o‘ylardim.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarnomlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida

Bu esa tadbirkor faoliyati yanada kengayib, qo‘shimcha ish o‘rinlari ochilishiga sabab bo‘ldi.

— Qishlog‘imiz yoshlarining bari mehnatkash, — deydi Rustam Xudoyqulov. — Bu ijobiy ma‘noda menga qo‘l keldi. Ularning 50 nafariga yog‘ochsozlik sirlarini o‘rgatib, ish bilan ta‘minladim. Hozir ular menga yaqin ko‘makchi, ishimning rivojida shogirdlarimning munosib hisssasi bor.

Turizm taraqqiyoti soha infratuzilmasini izchil rivojlantirishga bevosita bog‘liq.

Har bir shahar, har bir tuman, hatto eng chekka qishloqda ham shunday. Bolalar maktabda dars qilib, kutubxonada kitob o‘qib, sport maydonida bexavotir yugurib yuribdi. Yoshlar tengdoshlari bilan teng, erkin fikr qilib, o‘z iste‘dodini namoyon etishga harakat qilmoqda. Bu muhit shunchaki paydo bo‘lgan emas, osoyishtalik va barqarorlik yo‘lidagi urinishlar, mehnat, oqilona siyosat samarasidir.

Tinchlikni asrash har bir fuqaroning burchi. Osoyishtalikni qadrlash, uni qo‘ldan bermaslik kerak. Biz bir necha yil oldingi og‘ir iqtisodiy va siyosiy davrlardan ana shu xavfsizlik orqali o‘tdik. Bugun uni qadrlab, yanayam yaxshiroq hayot uchun mas‘uliyatli bo‘lishimiz shart. Mustaqillik nafaqat davlat ramzi, balki oilalardagi xotirjamlik, erkinlik, yuraklardagi umid.

Tinchlik atalmish sharoitda hayot gullaydi, ta‘lim yuksaladi, inson qadrlanadi. Bolalar o‘z orzularini amalga oshirishga intiladi, ota-onalar farzandlarining kelajagi uchun ishonch bilan reja tuzadi. Shu bois, har kuni eshitilayotgan bolalarning kulgisi, ularning xotirjamligi, uchun shukrona qilish — insoniy burchimiz. Chunki bu shodliklar jamiyat tinchligi, kelajak orzularimiz ulkanligining bir ko‘rinishidir.

Qarang, sokin tong. Ochiq derazalardan bolalarning qiyqirig‘lari eshitiladi. Farzandlari qo‘lidan tutgan ota-onalar bog‘cha tomon yo‘l oladi, ko‘chada o‘ynab yurgan bolalarga qo‘ni-qo‘shnilar tabassum bilan qaraydi. Demak, bu yurtida tinchlik bor, ko‘ngillar xotirjam.

Barno MELIQULOVA,
jurnalist



Ushbu yo‘nalishdagi mavjud masalalarni hal etish, sohada xizmatlar sifatini oshirishda tadbirkorlarning imkoniyat va tajribasiga ham tayanilmoqda. Bu esa sohaning iqtisodiyotdagi o‘rni va ulushi oshishiga xizmat qilyapti. Pirovardida turizm tom ma‘noda iqtisodiyotimizning ko‘p daromad keltirayotgan sohalardan biriga aylanmoqda.

Rustam Xudoyqulov ham bu boradagi islohotlarga labbay deya javob berayotgan ishbilarnomlardan. Uning tashabbusi bilan 2020-yilda tashkil etilgan “Nurota neogarden” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan o‘tgan yilning o‘zida Toshkent, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarining so‘lim maskanlarida barcha qulaylik va zamonaviy ko‘rinishga ega 100 ga yaqin ko‘chma dam olish yog‘och uylari qurildi. Joriy yilda esa ishlar yanada samarali boshlandi. Hozirgacha u qirrqqa yaqin yengil konstruksiyali yog‘och uylar qurdi.

Tadbirkorning aytishicha, uylarning hajmi va dizayni buyurtmachi talabiga qarab turlicha bo‘ladi. Ular topshirilishidan oldin yong‘inga qarshi ishlov berilib, mijozga uydan foydalanish yo‘riqnomasi tushuntiriladi. Bitta yuni qurish uchun 10 kun atrofida vaqt kerak bo‘ladi. Korxonaga qarashli sexda uy detallarga ajratilgan holda yasaliib, talab qilingan hududga maxsus texnika yordamida o‘rnatiladi.

Hozir Toshkent, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida buyurtma asosida yog‘och uylar qurish boshlangan. Tadbirkor tug‘ilib o‘sgan hudud — Nurota tumanining Chuya qishlog‘ida 10 ta xuddi shunday obyekt qurilmoqda. Bunday ko‘chma uylarga Tojikistondan ham xaridorlar ko‘paymoqda. Xorijdan xaridor topish evaziga tadbirkor kelajakda faoliyatini yanada kengaytirish niyatida.

Zebo QUTLIYEVA,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
34972 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy